

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

BADIIY OBRAZNI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY KOLORIT VA REALIYALARNING AHAMIYATI

Naima Soxibova Qodirjonovna

Renessans ta'lim universiteti Xorijiy til va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

+99899 320 30 04

naimasokhibova@gmail.com

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada badiiy tarjimada milliy koloritni saqlash va milliy xos so'zlarni tarjima qilishda eng maqbul usullardan foydalanish to'g'risida olib borilgan izlanishlar va ularning xulosalari kiritilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: milliylik, mahalliy, realiyalar, Mirtemir, Abdulla Qodiriy, Bobur, analogiya, ekvivalentlik, transliteratsiya.

АННОТАЦИЯ В статье представлены исследования и выводы по сохранению национального колорита в художественном переводе и использованию наиболее подходящих методов перевода национально-специфических слов.

Ключевые слова: национальность, местный, реалии, Миртемир, Абдулла Кадыри, Бабур, аналогия, эквивалентность, транслитерация.

ABSTRACT This article presents research on the preservation of national color in literary translation and the use of the most appropriate methods in the translation of national words and their conclusions.

Key words: nationality, local, realities, Mirtemir, Abdulla Kadiri, analogy, equivalence, transliteration.

KIRISH. Barchamizga ma'lumki, tarjima o'ta nozik jarayon bo'lib, bunda tarjimon bor mahoratini ishga solib uni qayta yaratish ustida tinimsiz izlanishlar olib borishi talab qilinadi. Tarjimon ikki til va ikki millat orasidagi bamisoli ko'prikdir, uning tarjima qilish qobiliyati orqali xalqning, millatning eng nozik qirralari aks ettiriladi. Ayniqsa, muayyan xalqqa mansub bo'lgan milliy xos so'zlarni tarjima qilishda tarjimonning yondashuvi alohida e'tiborga molikdir. Milliy koloritni saqlash tarjima qilingan badiiy asarning milliy bo'yog'ini yuzaga chiqarib beradi. Masalan: ma'lum tilda uchragan so'zlar va tushunchalar boshqa tilda bo'lmasligi yoki mazmunan, shakl, hajm jihatdan farq qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Tarjimada milliy koloritni saqlash masalalarini o'rganish jarayonida tarjima nazariyasi va amaliyoti sohasi doirasida oldin izlanish olib borgan shaxslarning metod va uslublaridan, jumladan, E.Ochilovning "Tarjima nazariyasi

va amaliyoti” va “Badiiy tarjima masalalari”, Qudrat Muasayevning “Tarjima nazariyasi asoslari”, I.G‘ofurov, O.Mo‘minov, N.Qambarovlarning “Tarjima nazariyasi” asarlaridan foydalanib xulosalar berildi.

Butun bir xalqning madaniyati, turmush tarzi, an‘analari va dunyoqarashi albatta uning tilida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham bu jihatdan tarjimon zimmasida turgan ma’suliyat juda katta. Ayniqsa, muayyan xalq tiliga mansub bo‘lgan milliy so‘zlarni ya’ni xos so‘zlarni tarjima qilishda tarjimonning yondashuvi alohida e’tiborga molikdir. Chunki tarjimon asarni qanday ko‘z bilan ko‘rsa o‘quvchi ham shundayligicha qabul qiladi, xulosa chiqaradi.

“Ma’lumki, badiiy tarjimada **“milliy kolorit”** - tushunchasi bizga noma’lum bo‘lgan xalqning urf-odatlarini, hayot tarzi, umumiy olganda, milliy xususiyatlari tushuniladi. Shunday ekan, milliy koloritni saqlagan holda eng maqbul usullardan to‘g‘ri foydalanib tarjima qila olgan tarjimonni shak-shubhasiz o‘z kasbining ustasi deyish mumkin. Misol uchun, o‘zbek tilida uchragan so‘zlar va tushunchalar boshqa tillarda bo‘lmashligi yoki mazmun, shakl, hajm jihatdan farq qilishi mumkin”. [1.12]

“Kolorit” - lotincha kolor, italyanча kolorito so‘zidan olingan bo‘lib, rang, bo‘yoq, manzara ma’nosini bildiradi.

Kolorit deganda tasviriy san’atda real hayotni haqqoniy aks ettirish uchun ishlatiladigan ranglarning mutanosibligi tushuniladi. Adabiyotda esa badiiy asarning o‘ziga xos xarakteri xususiyati: milliylik, davr, ma’lum joyning o‘ziga xos jihatlari ifodasi ko‘zda tutiladi. Kolorit biror narsaning o‘ziga xos belgi va xususiyatlari majmuini bildiradi. [2.321]

Milliylik u yoki bu millatning ma’naviy faoliyati va moddiy hayotidagi o‘ziga xosliklardir. Moddiy hayot esa urf-odat, rasm-rusum, marosimlar, kiyimlar, uy-ro‘zg‘or anjomlari, cholg‘u asboblari, pazandachilik, ismlar va hokazolar. Badiiy asarda aks etgan ana shu milliy xususiyatlar yig‘indisi adabiyotshunoslikda **milliy kolorit** deyiladi. [2.567]

Ana shu milliy kolorit bilan bog‘liq bo‘lgan so‘z va atamalar **realiyalar**, boshqacha aytganda, **milliy xos so‘zlar** deyiladi.

“Realiya” lotincha so‘z bo‘lib, buyumga, narsaga oid degan ma’noni bildiradi. [3.62-63]

TAHLIL VA NATIJALAR. “Realiyalar asarning ajralmas qismi bo‘lib, ular yordamida muallif qahramon obrazini yaratadi, xalqning milliy xususiyatini tasvirlab beradi. Ular badiiy asarning milliy koloritini ifoda etadi, turli uslubiy vazifalarni bajaradi, hodisa va predmetlarning xususiyatini haqqoniy, to‘g‘ri tasvirlashga yordam beradi”. [4.158] Shuning uchun ham realiyalar badiiy tarjimaning tarjimonni qiynab qo‘yadigan, tarjimani murakkablashtiradigan, ko‘pincha uni chalg‘itadigan jihatlarni tashkil etadi.

“Realiyalarga milliy taomlar, kiyim-kechaklar, milliy cholg‘u asboblari, nomlar, taxalluslar, laqablar, shahar, qishloq xususiyatlari, me’morchilik, geografik nomlar, tabiat manzaralari, hayvon va o‘simlik nomlari, daraja, unvon, tabaqa va boshqa bo‘linishlarni ifodalovchi so‘zlar, muassasalar, tashkilotlar, diniy marosimlar va boshqa etnografik belgilarni bildiruvchi so‘z va iboralar kiradi”. [5.257]

Milliy o‘ziga xoslik deganda, adabiy asarda tasvirlangan xalq hayotining moddiy sharoiti, ma’naviy turmush tarzi, tabiati, o‘rmon, tog‘, dala, suv, zamin, osmon hamda afsona, cho‘pchaklari, tarixi va dini, adabiyoti va san’ati hamda boshqa maxsus narsalar haqidagi tasavvurlari, tushunchalari, atamaları tushuniladi.

Badiiy obrazni qayta yaratishda tarjimon ishining birinchi bosqichi obraz yaratilgan millatning tarixi, ijtimoiy - adabiy sharoitlarini o‘rganishdir. Undan keyingi bosqichi uning mazmunini belgilashdir. Shundan keyin obraz yaratilishi kerak bo‘lgan asliyat tilining vositalarini va uslubiy yo‘llarini tahlil qilishi hamda oxiri ona tilida ifodalashning kerakli til vositalarni qidirib topish bo‘ladi.

Adabiy asarning umumiy sifatlari o‘sha yerliklarning xususiyy-ijtimoiy hayot tarzida,sharoitida, kiyimi,urflari, ko‘chalar-u shahari va boshqalarida namoyon bo‘ladi. Bularning yig‘indisi asarning milliy xususiyatini tashkil etib, barchasi orginal asarda nutq vositalari orqali berilgan bo‘ladi. Ularning to‘g‘ri tarjima qilinishi juda muhimdir.

Tarjimashunoslar fikricha, milliy xos so‘zlar tarjimasida eng qiyini u yoki bu tushuncha, narsa va hodisa haqida o‘quvchini ongida to‘liq va aniq tasavvur hosil qilishdir. Aytaylik, Sharq she‘riyatini bahor, ko‘klam, gul, bulbul, bo‘ston obrazlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Endi o‘ylab ko‘ringchi, bunday she‘rni umuman bahor fasli yo‘q mintaqa xalqlari tiliga qanday tarjima qilish mumkin. Tarjima qildik ham deylik, asl ma‘no saqlanib qoladimi? Maqol va matallar, iboralar tarjimasida ham milliylikka urg‘u berish kerak. Masalan, Misrda chaqmoq chaqish hodisasi har ikki yuz yilda bir marta kuzatilar ekan. Ular bizni turmushimizga xos chaqmoqday yigit, yashin tezligida, chaqmoq urdi kabi iboralarni qabul qilolmasligi mumkin. Shunga ko‘ra, Mirtemirning:

Ko‘zim ko‘zinga tushdi,

Chaqmoq chaqqanday bo‘ldi.

misralarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Hatto ranglarni ham milliylikda o‘z o‘rni bor. Masalan: oq-musaffolik ramzi deb ko‘p millatlarda qabul qilingan bolsa, Yaponiya, Hindiston, Xitoyda azadorlik belgisidir. Yashilni Amerikaliklar xavfsizlik belgisi sifatida ko‘rsa, Fransiyada bu jinoyatchilik belgisi hisoblanadi. Bu kabi misollar ancha ko‘pdir.

Xos so‘zlarni tarjima qilishning 3 usuli bor.

- Transliteratsiya usuli- bir yozuv harflarini boshqa til yozuv harflari bilan berish. Tarjimada joy va kishi nomlari, turli atamalar va milliy xos so‘zlarni boshqa til belgilari bilan aynan ko‘rsatib berish. tarjimada transliteratsiyada berilishi tarjima tilida realiyalarga mos ekvivalentlarning yo‘qligi bilan sharhlanadi. Ammo, transliteratsiyani qo‘llash me‘yorini ham unutmaslik kerak.

- Analogiya usuli- o‘xshashlik, bir-biriga yoki boshqasiga o‘xshashlik, ya’ni, muqobil tushunchani berish. Masalan: Oybekning "Navoiy" asarining rus tilidagi tarjimasida "sholcha" "палач" sifatida o‘girilgan. Analogiya usuli "Yaqin tarjima " deb ham ataladi. Lekin buning nomining o‘zi asliyatdagi miliy xususiyatni barcha qirralarini ochib berolmasligini aytib turibdi.

• Yangi so‘z va yangi so‘z birikmasi yaratish usuli- ba’zi tarjimonlar milliy xos so‘zlar va iboralarni, nom va tushunchalarni shunday tarjima qilib oladiki, bu hol xuddi qosh qo‘yaman deb, ko‘z chiqarib qo‘yishga o‘xshaydi. Masalan: M. Kenlabek "Evgeniy Onegin" tarjimasida "тройка" ni "uchot", "котлет" ni "qiyma et" sifatida, yoki bo‘lmasam "крещенские вечера" marosimini "Hayit shomi" deb beradi. Holbuki, bu nasroniylarning o‘ziga xos but yuvish bayram oqshomi hisoblanadi. Bu kabi holatlar afsuski tarjimalarda ko‘p kuzatilgan.

Quyidagi gapda Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asarining ingliz tiliga qilingan tarjimasida "Starry nights Babur" dan transliteratsiya usulida o‘girilgan ushbu misolni ko‘rishimiz mumkin:

"Somebody knocked with the handle of *kamchi* at the gate". [6.157]

"Shu payt kimdir *qamchi* dastasi bilan darvozani taqillatdi". [7.189]

Ko‘pincha transliteratsiya yoki transkripsiya usulida tarjimaga ko‘chgan so‘zlar anglatgan ma’no yoki tushunchani o‘quvchi bilan yaqindan tanishtirish maqsadida sarlavha osti izohlari va tushuntirishlaridan foydalaniladi. Quyidagi so‘zlar ham shu yo‘sinda tarjima qilingan:

"He ate two pieces of *handalak* (small honey melon) and drank several *pialas* (a drinking bowl (as used in Central Asia)) of tea". [8.93]

"Faqat bir-ikki tilim *handalak* yedi-yu uch-to‘rt *piyola* choy ichdi"

Bu kabi so‘zlarning transliteratsiya usuli orqali tarjima qilinishiga asos qilib ko‘rsatish mumkin:

1. Transliteratsiya vositasida til xazinasini boyiydi: yangi so‘zlar, terminlar, tushunchalar kirib keladi.

2. Bir paytlar transliteratsiya vositasida kirib kelgan so‘z keyinchalik tilga singib ketishi mumkin.

3. Transliteratsiyada ham muayyan me’yor bo‘lishi kerak: milord-moy prins-shahzodam, gospodin-janob kabi.

L.S. Barxudarovning tarjima tasnifiga ko‘ra, tarjimaning yana bir samarali usuli bu - kalkalash hisoblanadi. Ba’zan asliyatdagi so‘zlarning tarjima tilida muqobili bo‘lmasa ham saqlab qolish imkoniyati bo‘ladi. Bunga kalkalash yo‘li bilan erishish mumkin. Kalkalash bu- so‘zma-so‘z tarjima qilishdir. Quyidagi misollarimizda tarjimaning kalkalash usuli orqali o‘girilgan ana shunday so‘z va so‘z birikmalarini tahlil qilganmiz.

Quyidagi misolda "Yulduzli tunlar" romani va uning tarjimasida "Starry nights Babur" dan keltirilgan kalkalash usuliga namunani ko‘rishimiz mumkin:

"Call my father a lion-armed man". [6.157]

"Sherpanja deb otamni aytsinlar". [7.152]

XULOSA. Ma’lumki, badiiy tarjimada milliy kolorit tushunchasi bizga ma’lum, noma’lum bo‘lgan xalqning urf-odatlarini, hayot tarzi, umuman olganda, milliy xususiyatlari tushuniladi. Shunday ekan, milliy koloritni saqlagan holda eng maqbul usullardan to‘g‘ri foydalanib tarjima qila oladigan tarjimonni o‘z kasbining ustasi deyish mumkin. Tarjimon nafaqat xorij tilni, balki o‘z tilining grammatikasi, leksikologiyasi, stilistikasini ham mukammal

o‘rganishi lozim bo‘ladi. Asliyatdagi milliy o‘ziga xoslikni tarjimada aks ettirish masalasi tarjimashunoslikda atroflicha o‘rganilgan soha. Shunga ko‘ra, badiiy asarlar tarjimasi jarayonida ko‘ngil yoqqan yo‘l bina emas balki haqiqiy mutaxassislardek hasoslik bilan yondashish talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pardayeva Sitora Zohidjon qizi. Maqola - “Milliy so‘zlarning tarjimada berilishi” *Science and education* scientific journal. 12-bet.
2. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” 5 jildlik. Toshkent, 2006. 321-bet.
3. Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti. Tarjimashunoslik fanidan ma‘ruzalar matni. Toshkent, 2012. 62-63-betlar.
4. Hamroyev H. Milliy xos so‘zlar-realiyalar va badiiy tarjima. Toshkent, 1982. 158-bet.
5. Fayzullayeva R. Yo‘llar yiroq, ko‘ngil yaqin. Tarjima san‘ati (Maqolalar to‘plami).-Toshkent, 1973, 257-bet.
6. To‘xtasinov I., Yo‘ldoshev U., Hamidov A. “Starry nights Babur” Samarkand. SamDCHTI – 2019. p.157.
7. Pirimqul Qodirov. “Yulduzli tunlar”. “Sharq” nashriyoti. Toshkent. 2009. 189-bet.
8. To‘xtasinov I. “The Scorpion from the Altar” p.93.